

02-11/65
02.07.2025



**Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, "O'zgarish" ko'chasi,
18-manzilda bo'lib o'tgan navbatdan tashqari yig'ilish
BAYONNOMASI № 12**

2025-yil 26-iyun

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: T.Kuziev – Ilmiy-ekspert kengashi raisi.

Qatnashdilar: Ilmiy-ekspert kengashi a'zolari: I.Yusupov, X.Sultonov, Sh.Pidaev, B.Raxmanov, M.Saidov hamda M.Mumin-Axunova

Qatnashmaganlar: F.Usmonov va A.Kuranov.

Mas'ul kotib: X.Haydarov.

KUN TARTIBI

1. Buxoro viloyati eski shahar hududida joylashgan "Passaj-1" madaniy meros obyektini muzeylashtirish loyihasi.

Asos: Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasining 16.06.2025-yil 04-KM/1508 xati hamda dastlabki xulosasi.

2. Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, "Shota Rustaveli" ko'chasi, 53-manzilda joylashgan "Yakkasaroy savdo markazi binosi" hamda "Shota Rustaveli" ko'chasidagi 33, 35, 37, 39-manzillardagi "Turar joy" madaniy meros obyektlarining tashqi ko'rinish qismini ta'mirlash ishlari loyihasi.

Asos: Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 23.06.2025-yil 01-02/930-sonli xati hamda dastlabki xulosasi.

3. Buxoro viloyati tarixiy markazining qismlaridagi beton va asfalt qoplamalarini demontaj qilgan holda ohaktosh qoplamasini yotqizish loyihasi.

Asos: Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasining 23.06.2025-yil № 04-KM/1484 xati hamda dastlabki xulosasi.

4. Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Shastri ko'chasi, 15-manzilda joylashgan "Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi" madaniy meros obyekti binosini mukammal ta'mirlash loyihasi.

Asos: Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 25.06.2025-yil 01-02/954-sonli xati hamda dastlabki xulosasi.

5. Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Burhonov ko'chasi (Ilgarigi Cherdanseva ko'chasi), 15-manzilda joylashgan "O'rol Tansiqboyev uy-mezevi" madaniy meros obyekti binosini mukammal ta'mirlash loyihasi.

Asos: Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 25.06.2025-yil 01-02/956-sonli xati hamda dastlabki xulosasi.

6. Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Arpapoya ko'chasi, 1-manzilda joylashgan **"G'afur G'ulom uy-muzeyi"** madaniy meros obyekti binosini mukammal ta'mirlash loyihasi.

Asos: Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 23.06.2025-yil 01-02/936-sonli xati hamda dastlabki xulosasi.

7. Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Iftixor 1-tor ko'chasida joylashgan **"Oybek uy-muzeyi"** binosini mukammal ta'mirlash loyihasi.

Asos: Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 25.06.2025-yil 01-02/958-sonli xati hamda dastlabki xulosasi.

8. Buxoro shahri, X.Gulrez ko'chasi, 13-uy manzilda joylashgan **"Qadimiy hovli (Hovli Poyon)"** madaniy meros obyekti "Buxoro jadidlari muzeyi"ga moslashtirish, restavratsiya-tiklash ishlari loyihasi.

Asos: Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasining 25.06.2025-yil 04-KM/1506 xati hamda dastlabki xulosasi.

9. Toshkent shahar, Olmazor tumani, "Zarqaynar" ko'chasi, "Hazrati Imom" majmuasi hududida obodonlashtirish ishlari loyihasini joyiga chiqqan holda o'rganib chiqish.

Asos: Toshkent shahar "TRES 12" AJning 25.06.2025-yildagi 01/428-sonli xati.

**Kun tartibidagi masalalarni atroflicha o'rganib,
muhokama qilib, Ilmiy-ekspert kengashi
QAROR QILADI:**

1. Buxoro viloyati eski shahar hududida joylashgan **"Passaj-1"** madaniy meros obyekti muzeylashtirish loyihasi madaniy meros obyektiga ziyon yetkazmaslik sharti bilan ma'qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan) Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

Shuningdek, Mazkur loyiha YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi kotibiyati bilan kelishish hamda muzey ekspozitsiyalarini joylashtirilishini Madaniy meros agentligining Muzey faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi va malakali mutaxassislar bilan kelishgan holda amalga oshirilishi tavsiya etilsin.

2. Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, "Shota Rustaveli" ko'chasi, 53-manzilda joylashgan "Yakkasaroy savdo markazi binosi" hamda "Shota Rustaveli" ko'chasidagi **33, 35, 37, 39**-manzillardagi **"Turar joy"** madaniy meros obyektlarining tashqi ko'rinish qismini ta'mirlash ishlari loyihasi ma'qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan) Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

Qarshi ovoz berishdi: T.Kuziyev, X.Sultonov va M.Mumin-Axunovalar.

3. Buxoro viloyati tarixiy markazining qismlaridagi beton va asfalt qoplamalarini demontaj qilgan holda ohaktosh qoplamasini yotqizishda madaniy meros obyektlariga ziyon yetkazmaslik sharti bilan ma'qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan) Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

4. Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Shastri ko'chasi, 15-manzilda joylashgan **"Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi"** madaniy meros obyekti binosini mukammal ta'mirlash loyihasi;

-loyihalashtirilgan binoning yer to'la qismidagi studiyani qilmaslik va mavjud majlislar zalini zamonaviylashtirish sharti bilan ma'qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan) Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

Muzey ekspozitsiyalarini joylashtirilishini Madaniy meros agentligining Muzey faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi va malakali mutaxassislar bilan kelishgan holda amalga oshirilishi tavsiya etilsin.

5. Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Shukur Burhonov ko'chasi (Ilgarigi Cherdanseva ko'chasi), 15-manzilda joylashgan **"O'rol Tansiqboyev uy-muzeyi"** madaniy meros obyekti binosini mukammal ta'mirlash loyihasi ma'qullansin.

Muzey ekspozitsiyalarini joylashtirilishini Madaniy meros agentligining Muzey faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi va malakali mutaxassislar bilan kelishgan holda amalga oshirilishi tavsiya etilsin.

6. Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Arpapoya ko'chasi, 1-manzilda joylashgan **"G'afur G'ulom uy-muzeyi"** madaniy meros obyekti binosini muhandislik kommunikatsiya ishlari loyihasi ma'qullansin.

Madaniy meros obyektni restavratsiya loyihasi ishchi chizmalari bilan birgalikda Vazirlar Mahkamasining 20.05.2024-yildagi 295-son qarori talablari asosida qayta ishlab chiqib, Ilmiy-ekspert muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

7. Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Iftixor 1-tor ko'chasida joylashgan **"Oybek uy-muzeyi"** binosini mukammal ta'mirlash loyihasi;

-loyihalashtirilgan B blokda qo'shimcha qurilishi rejalashtirilgan devorni qilmaslik, binoga kirish qismidagi ayvon usti xonasiga chiqish zina zinapoyani o'ng tomonga o'tkazish hamda muzey ekspozitsiyalarini o'z o'rnida qoldirish sharti bilan ma'qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan) Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

8. Buxoro shahri, X.Gulrez ko'chasi, 13-uy manzilda joylashgan **"Hovli Poyon"** madaniy meros obyektni "Buxoro jadidlari muzeyi"ga moslashtirish, restavratsiya-tiklash ishlari loyihasi bo'yicha Ilmiy-ekspert kengashi a'zolari I.Yusupov, B.Raxmonov hamda F.Usmonovlar joyiga chiqqan holda o'rganib chiqib xulosa berishi tavsiya etilsin.

9. Toshkent shahar, Olmazor tumani, "Zarqaynar" ko'chasi, "Hazrati Imom" majmuasi hududida obodonlashtirish ishlari Ilmiy-ekspert kengashi raisi T.Kuziyev, Ilmiy-ekspert kengashi a'zolari I.Yusupov hamda B.Raxmonovlarni joyiga chiqqan holda majmua hududida olib borilayotgan obodonlashtirish ishlari o'rganganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

1. Hazrati Imom majmuasi asosiy maydonida atmosfera (yog'ingarchilik) suvlari va yer osti suvlarini qochirish drenaj tizimi "O'zog'irsanoatloyiha" AJ tomonidan ishlab chiqilgan loyiha asosida bajarilayotganligi ta'kidlansin;

2. Majmua maydonni ohaktosh bilan qoplash bo'yicha berilgan eskizga muvofiq quyidagi o'lchamlardagi ohaktoshlar tanlab olinganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin: 1. 1000x600x60 mm (joynamoz o'lchamida); 2. 600x300x60 mm (saf).

3. Majmuasi maydonini ohaktosh bilan qoplash bo'yicha bajarilayotgan ishlar Ilmiy ekspert kengashining 11.06.2025-yil 10-son bayonidagi ohaktoshlar o'lchamlari 12-TREST tomonidan berilgan eskizdagi o'lchamlar bilan to'ldirilsin.

Kengash mas'ul kotibi

 **X. Haydarov**